

TEMURIYLAR DAVLATI TASHQI SIYOSATI ARAB MANBALARIDA: TEMURIYLAR VA MAMLUKLAR

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА ТИМУРИДОВ В АРАБСКИХ ИСТОЧНИКАХ: ТИМУРИДЫ И МАМЛЮКИ

FOREIGN POLICY OF THE TIMURID STATE IN ARABIC SOURCES: THE TIMURIDS AND THE MAMLUKS

TURDIMIRZAYEV Elyorbek

Academy of Sciences Institute of History

Junior researcher

Uzbekistan, 100047, Tashkent, Yahya Gulomov, 70

G-mail: turdimirzayevelyorbek@gmail.com

DOI: 10.47980/PAU/2024/3/2

Annotatsiya: Temuriylar davri bilan bog'liq manbalarining ko'pi fors tilida bo'lishi bilan birgalikda arab manbalarida ham bu davr bo'yicha muhim ma'lumotlar mavjud. Xususan, temuriylar va mamluklar o'rtasidagi munosabatlar ham keng va ancha batafsil yoritilgan. Bu ishimizda ko'proq arab tarixchilarining asarlariga tayandik. Shaxsan Amir Temur bilan uchrashgan yoki u bilan bir davrda yashagan arab tarixchilarining asarlaridan foydalandik.

Ma'lumki, XIV asr oxiri XV asr boshida Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Yaqin Sharq va Onado'lida to'rtta buyuk davlat bor edi. Bular dan birinchisi Movarounnahr va Eronda hukmron temuriylar, ikkinchisi Dashti Qipchoqda Oltin O'rda xonligi, uchinchisi Misr va Suriyada mamluklar davlati, to'rtinchisi Onado'lida usmoniylar davlatidir.

Bizning tadqiqot mavzuyimiz temuriylar va mamluklar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar bo'lishiga qaramasdan har ikki davlatga qo'shni bo'lgan va bevosita ular bilan diplomatik aloqada bo'lgan davlatlarning munosabatlarini ham o'rganishdan iborat.

Ushbu maqolada Amir Temur o'zi tug'ilib o'sgan mintaqada hokimiyatni qo'lga olib, uni mustahkamlagandan so'ng, butun e'tiborini mamluk davlati hukmronligi ostida bo'lgan Sharqiy Onado'li va Suriya mintaqasiga qaratishi sabablarini o'rganilgan.

Maqolada bu ikki davlatning o'zaro aloqalari qachon boshlanganligi, bu davlatlar orasidagi munosabatlarni taranglashtirgan omillar, bu ikki davlatning bir-biriga qarshi tuzgan ittifoqchiliklar, elchilik aloqalari, o'zaro maktub almashinuvlari va ular o'rtasida sodir bo'lgan harbiy harakatlar ochib berilgan. Bundan tashqari, bu ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlari va o'zaro ilmiy faoliyatlari qanday bo'lganligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, mamluklar, Samarqand, Shom,

Halab, Amir Temur, Shohrux mirzo, sulton Barquq, sulton Faraj, sulton Barsbay, sulton Chaqmoq, To'xtamishxon, Boyazid Yildirim, elchi, maktub.

Аннотация: Наряду с тем, что большинство источников, относящихся к периоду Тимуридов, написаны на персидском языке, арабские источники также предоставляют важную информацию об этом периоде. В частности, подробно освещены взаимоотношения Тимуридов и мамлюков. В этой работе основной упор делается на трудах арабских историков. В работе автор использовал труды арабских историков, встречавшихся с Амиром Темуrom или живших в то же время.

Известно, что в конце XIV — начале XV веков существовало четыре великих государства: Мовароуннахр, Дашти Кипчак, Ближний Восток и Анатолия. Первое из них — Тимуриды, правившие в Мовароуннахре и Иране, второе — Золотоордынское ханство в Дашти-Кипчаке, третье — государство мамлюков в Египте и Сирии, четвертое — Османское государство в Анатолии.

Темой нашего исследования является изучение отношений Тимуридов и мамлюков, а также отношений стран, граничащих с обеими странами и имеющих с ними прямые дипломатические отношения.

В данном исследовании рассматриваются причины, по которым Амир Тимур, получив власть в родном регионе и упрочив ее, обратил все свое внимание на Восточную Анатолию и Сирию, находившиеся под властью мамлюкского государства.

Исследование раскрывает время начала взаимоотношений между этими двумя странами, факторы, которые обострили отношения между этими странами, союзы, которые эти две страны сформировали друг против друга, дипломатические отношения, обмен письмами и военные действия, которые происходили между ними. Кроме того, изучаются торговые отношения и взаимная научная деятельность между этими двумя странами.

Ключевые слова: Тимуриды, мамлюки, Самарканд, Шам, Алеппо, Амир Тимур, Шахрух Мирза, Султан Баркук, Султан Фарадж, Султан Барсбай, Султан Чакмок, Тохтамыш-хан, Баязид Йылдырым, посол, письмо.

Annotation: Along with the fact that most of the sources related to the Timurid period are in Persian, Arabic sources also provide important information about this period. In particular, the relationship between the Timurids and the Mamluks is covered in detail. In this research, we relied more on the works of Arab historians. We used the works of Arab historians who personally met Amir Temur or lived at the same time as him.

It is known that at the end of the 14th century and the beginning of the 15th century, there were four great states in Movarounnahr, Dashti Kipchak, Middle East and Anatolia. The first of these is the Timurids ruling in Movarounnahr and Iran, the second is the Golden Horde Khanate in Dashti Kipchak, the third is the Mamluks state in Egypt and Syria, and the fourth is the Ottoman state in Anatolia.

Our research topic is to study the relations of the neighboring states of both countries and have direct

diplomatic relations with them, despite the fact that there are diplomatic relations between the Timurids and the Mamluks.

This article examines the reasons why Amir Timur, after gaining and consolidating power in the region where he was born and raised, turned all his attention to the region of Eastern Anatolia and Syria which were under the rule of the Mamluk state.

The study reveals information about the start of mutual relations between these two countries, the factors that strained the relations between these countries, the alliances that these two countries formed against each other, diplomatic relations, exchanges of letters, and the military actions that took place between them. In addition, trade relations and mutual scientific activities between these two countries are researched.

Key words: Timurids, Mamluks, Samarkand, Sham, Aleppo, Amir Temur, Shahrukh Mirza, Sultan Barquq, Sultan Faraj, Sultan Barsbay, Sultan Chakmok, Tokhtamish Khan, Bayazid Yildirim, ambassador, letter.

KIRISH

Amir Temur Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'zining hokimiyati ostida birlashtirgandan so'ng G'arb tomon yurishda davom etdi. Erondagi Elxoniylar davlati siyosat sahnasidan tushgandan so'ng, bu hududda kichik mayda davlatlar paydo bo'ldi. Amir Temur Eron hududidagi shaharlarni birin-ketin bo'ysundirib, Shom va Misrda hukmronlik qilayotgan mamluk davlati bilan chegaralarini tutashtirdi. Mamluk davlati 1260-yil "Ayni Jolut" jangida Sayfiddin Qutuz yetakchiligida to'xtatib bo'lmas deb nom olgan mo'g'ul qo'shinini ayanchli mag'lubiyatga uchratgandan so'ng ushbu mintaqada juda qudratli kuchga aylangan edi. 1382-yil noyabr oyida mamluk davlati taxtiga cherkezlardan bo'lgan sulton Zohir Barquq chiqdi (Ulaby, 1987). Sulton Barquqning olib borgan muvaffaqiyatli siyosati sababli, Amir Temurning muxolifatchilari uning oldida panoh topishga harakat qilganlar.

USLUBLAR

Tadqiqotni yoritish jarayonida va uning metodologik asosi hamda konsepsiyasini ishlab chiqishda zamonaviy tarixiy tadqiqot usullari asos qilib olindi. Jumladan, tarixiylik, tadrijiylik, haqqoniylik, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida yondashildi. Turli manbalar, ma'lumotlarni muomalaga kiritish jarayonida ular ham qiyosiy tahlil etish asosida umumlashtirildi.

ASOSIY QISM

Amir Temur bilan Sulton Barquq o'rtasidagi dastlabki rasmiy munosabat Temurning 1385-yilda Barquqqa mahsus elchi vositasi bilan bir maktub yuborishidan boshlangan. Barquq ham bu maktubga

uyg'un ravishda bir javob maktubini yuborgan (Maqriziy, 1997) (Ulaby, 1987) (Kanat, 2022). Lekin maktubda nima haqida ma'lumot borligi bildirilmagan. Amir Temur 1386-yil Tabriz shahrini egallaydi. Shahar hokimi bo'lgan Ahmad Jaloyir shaharni tashlab Bag'dod tomon qochib ketadi. So'ng Temur Tabriz bilan Bag'dod orasidagi barcha yerlarni egallaydi (Maqriziy, 1997) (Asqaloniy, 1994). Bag'dodda bo'lgan Ahmad Jaloyirga xabar yuborib o'zining yurtida Temur nomi bilan tanga zarb qilishni va xutba o'qitilishini talab qiladi. Agar bu talablari qondirilmasa jang qilish bilan tahdid soladi (Kanat, 2022). Shu vaziyatda Ahmad Jaloyir Sulton Barquqqa Amir Temur Qorabog'gacha kelganligini va bu holatdan tashvishga tushib sultonni ogohlantirish maqsadida maktub yozadi (Maqriziy, 1997) (Asqaloniy, 1994) (as-Sirofiy, 1970). O'sha davr tarixchilaridan bo'lgan Ibn Hajar Asqaloniy Ahmad Jaloyir Misr sultoniga bir ayol kishini elchi qilib yuborganligini qayd qilib o'tgan (Asqaloniy, 1994).

Bu orada juda muhim hodisa ro'y beradi. Damashq noibi Amir Temurning josusi ekanligi bilan ayblangan bir turkni Qohiraga yuboradi. Qiynoqlar natijasida josus o'zi bilan yana ikki kishi borligini ham e'tirof etadi. Qolgan ikkisini ham sulton Damashq noibidan topishni talab qiladi (Maqriziy, 1997) (Asqaloniy, 1994) (as-Sirofiy, 1970) (Ulaby, 1987). Bu yerda shu narsa muhimki, Amir Temur Shom hududlarini egallashdan 13-14 yil, balki undan oldin mazkur hududlarga o'z josuslarini yuborib bu yerdagi ma'lumotlarni yig'a boshlagan.

Amir Temur Bag'dodni fath etgandan so'ng 1393-yil Misr sultoniga elchilar bilan birgalikda bir maktubni yuboradi. U o'sha davrda katta hayot tajribasiga ega bo'lgan Sava shahrining ulug'laridan bo'lgan shayx Sava boshchiligidagi o'z elchilarini Bag'doddan Qohiraga bir qancha hadyalar bilan jo'natdi. Maktubda ikki davlat o'rtasida o'zaro bordikeldi qilish, yo'llarning xavsizligini ta'minlash orqali savdogarlarni emin-erkin ikki davlat hududiga borib kelishlari uchun o'zaro hamkorlikka davat qilingan edi (Shomiy, 1996) (Yazdiy, 2013). Amir Temurni elchilari Rahba shahriga yetib kelganida mamluk sultoni Barquq shahar noibiga o'z davrining davlatlar orasidagi xalqaro huquqqa zid kelsa ham elchilarni ushlab qatl qilishni va Amir Temur elchilar orqali yuborgan sovg'a-salomni Qohiraga yuborishni talab qiladi. Rahba shahrining noibi sultonning buyrug'ini amalga oshiradi (Shihna, 1997) (Kanat, 2022). Arab manbalariga ko'ra, Amir Temur Misr sultoniga yuborgan narsalari ichida to'qqizda joriya, to'qqizta qul, mo'yna, gazlamalar va boshqa narsalar bor edi. Faqat yuborilgan qullardan bir donasi haqiqiy qul, qolganlari esa Bag'dod vaziri, qozisi, muhtasibi, amiri, bir savdogar, voli, kotib va bir shayxning o'g'illari edi (as-Sirofiy, 1970) (Asqaloniy, 1994) (Alan, 2007) (Kanat, 2022). Amir Temurga

elchilarining qatl qilinganligi xabari yetib keldi. Bunga javoban Amir Temur shom tomonga yo'l oldi va Ruho shahrini egalladi (Shihna, 1997). Ibn Hajar Asqaloniyl bergan ma'lumotga ko'ra, shahar Amir Temurga jangsiz taslim bo'lgan (Asqaloniyl, 1994). Sulton Barquq Amir Temurga yuborgan javob maktubida, o'ziga yuborilgan hamma narsani olganligi faqat u yuborgan qilich va o'q nima ma'no anglatishini tushunmaganligini, agar u bilan qo'rqitmoqchi bo'lgan bo'lsa bundan qo'rqmaganligini bildirgan. Yana Barquq "Ahmad Jaloyirni zanjirlab yubormasa bahor oyida bizga yurish qilishingizni aytibsiz, sizni aytgan vaqtingizdan oldin kutamiz" deb yozgan o'zining Temurga yuborgan maktubida. Bundan tashqari Barquq Amir Temurni elchilarini o'ldirish masalasiga ham to'xtalib, elchilar Rahba shahriga kelib, u yerning noibiga Amir Temur nomi bilan tanga zarb qilishni va xutba o'qishni talab qilganlari uchun o'ldirilganliklarini bildirgan. Sulton Barquq tomonidan Amir Temurga yuborilgan maktubning to'liq qismi Ahmad ibn Ali Qalqashandiyning "Subh al-A'sha" asarida kelgan. Bu maktubning hammasi o'n ikki sahifadir (Qalqashandiy, 1922) (Alan, 2007) (Kanat, 2022). Mazkur javob maktubidan ko'rinib turibdiki, Amir Temur Sulton Barquqqa o'ziga xos "yumshoq kuch" bilan bosim o'tkazgan. Buning aksi tarzda, Barquq Amir Temurni to'g'ridan-to'g'ri jangga chorlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu orada Misrga Amir Temurdan ikkinchi maktub keldi. Bu maktubda Temur Barquqqa o'ziga tobe bo'lmasa halok bo'lishini aytib tahdid qiladi. Temur Barquqni xalqiga zulm qilishda, olimlarni qatl qilganlikda, poraxo'rlikda, yetim haqqini yeganlikda va hech qayerda elchiga o'lim yo'q bo'lsa ham o'zining elchilarini o'ldirganlikda ayblaydi. Bu maktubda Amir Temur Qur'onni Naml surasi 34, Niso surasi 10, Ahqof surasi 20, Maryam surasi 98, Nur surasi 54 va Haqqo surasi 8-oyatlaridan o'zini haqligi va Barquqni nohaqligiga dalil olib misol keltiradi (Arabshoh, 2019) (Maqriziy, 1997) (as-Sirofiy, 1970) (Tag'riberdi, 1971). Barquq Amir Temurga yuborgan javob maktubida uni kofirlikda ayblab, o'zi esa halifadan boshqa hech kimga itoat qilmasligini bildirgan (Arabshoh, 2019) (Maqriziy, 1997) (as-Sirofiy, 1970) (Tag'riberdi, 1971). Ba'zi manbalarda bu maktubning to'liq matni berilgan, ba'zi manbalarda maktub qisqartirilib, maktubning mazmuni berilgan. Misr sultoni ham maktubda o'zini haqligi va Amir Temurni nohaqligiga dalil qilish uchun Ali Imron surasi 26, 169 va 171, Baqara surasi 249, Kafrun surasi, Infitor surasi 1, Moida surasi 56, Maryam surasi 79, 80, 89, 90, Shuaro surasi 227-oyatlaridan foydalangan. Bu ikki hukumdorni shu kabi Qur'oni karim oyatlaridan foydalanib, bir-birga dashnom otishdan maqsad aslini olganda o'sha davrda musulmon olamida liderlikka da'vo qilish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan to'qnashuvda butun ayblarni dushman tomonga ag'darib

o'zini oqlashdir. Shunisi e'tiborga molikki, Amir Temur hech qachon musulmon hukumdorlarini kofirlikda ayblamagan, garchi uni kofirlikda ayblashgan bo'lsa ham. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Sohobqiron islom dinidan chuqur xabardor bo'lgan. Chunki, bir musulmonni kofirlikda itob qilish qanchalik og'ir gunoh ekanligini u juda yaxshi tushunib turgan.

Shuni tan olish kerakki, Sulton Barquq o'zining yuritgan aqilli siyosati tufayli o'z davlati hududini Amir Temur tomonidan egallab olinishiga yo'l qo'ymadi. Barquq hukmronligi davrida amalga oshirgan eng muhim siyosatlaridan biri Amir Temurga qarshi tashkil qilingan to'rtlik ittifoq tashabbusidir. Bu ittifoq Sivas va Qaysariya hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmad boshchiligida Misr sultoni Barquq, usmoniylar sultoni Boyazid Yildirim va Oltin o'rda hukmdori To'xtamishxon o'rtasida tuzilgandir. Amir Temur 1393-yil oxirida Sivas va Qaysariya hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmadga maktub yuborib, o'ziga tobe bo'lishi, uning nomidan pul zarb qilib xutbada uning nomini o'qilishi, agar bu talablar bajarilmasa oqibati yaxshi bo'lmasligini bildirgan (Arabshoh, 2019) (Esterabadi, 1990) (Asqaloniyl, 1994) (Yujel, 1970) (Kanat, 2022). Ammo Qozi Burhoniddin Amir Temur qarshi o'zi yakka kurasha olmasligini bilib, maktubning bir nusxasini usmonli sultoni Boyazid Yildirimga yana bir nusxasini Misr mamluk sultoni Barquqqa yubordi (Asqaloniyl, 1994). Astrabodiy bergan ma'lumotga ko'ra, mamluk sultoni Temur Qoziga yuborgan elchilarni Qohiraga yuborishni so'ragan va u ham Temurning elchisini Qohiraga biror zarar yetkazmaslik sharti yuborgan (Esterabadi, 1990). Ibn Arabshoh bergan ma'lumotga ko'ra esa Qozi Burhoniddin elchini o'ldirib, bir qismini maktub bilan Boyazidga yana bir qismini Barquqqa yuborgan (Arabshoh, 2019). Bu yerda Astrabodiy bergan ma'lumotlar Ibn Arabshox bergan ma'lumotlardan ko'ra haqiqatga yaqinroq. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Qozi Burhoniddin Sivas shahri usmoniylar va mamluklar davlatiga kiradigan eshik ekanligini ta'kidlab, agar unga biror ziyon yetsa bu ikki davlatga ham ziyon yetmasdan qolmasligini aytib ulardan yordam talabida bo'lib elchi yuboradi va Amir Temurga qarshi kurashda ittifoqdosh bo'lishni taklif qiladi (Esterabadi, 1990) (Arabshoh, 2019). Shu vaqtda mamluk sultoni Barquqqa Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon tarafidan ham elchilar maktub bilan kelishadi. Maktubda To'xtamish Amir Temurga qarshi kurashda o'zaro ittifoq qilish taklifini beradi (Maqriziy, 1997). Ayni shu vaqtda usmonli sultoni Boyazid Yildirim ham Barquqqa elchi jo'natib Amir Temurga qarshi ittifoq taklifini beradi (Asqaloniyl, 1994). Sohobqironga qarshi yolg'iz kurasha olmasliklarini bilgan bu hukumdorlar o'ziga xos to'rtlik ittifoqini shakillantirishdi. Amir Temur o'zining doxiyona yuritgan siyosati tufayli bu ittifoqni parchalab, mazkur davlat hukumdorlarini o'ziga

bo'ysundiradi. Amir Temur 1395-yil To'xtamish ustiga yurish qilib, uni butunlay mahf etdi. Temur To'xtamish poytaxti Saroy shahrini ham egalladi (Arabshoh, 2019) (Asqaloni, 1994). To'xtamish bu jangdan so'ng Amir Temurga qarshi kurash olmaydigan holga keldi. Shu bilan ittifoqning bir jabhasi yaroqsiz holga keldi.

Amir Temur Hindiston yurishi vaqtida uning Yaqin Sharqdagi josuslaridan Sivas va Qaysariya hukmdori Qozi Burhoniddin va mamluk sultoni Barquqning vafot etganliklari to'g'risida xabar keldi (Shihna, 1997) (Arabshoh, 2019). Buning natijasida mamluk davlati taxtiga Barquqning yosh va tajribasiz o'g'li Nosir Faraj o'tirdi. Qozi Burxoniddin davlatini esa usmoniylar hukmdori Boyazid egallab oldi. Bundan tashqari Boyazid mamluk davlati tarkibiga kiruvchi Albiston, Malatiya, Darend va Divriya hududini ham o'ziga qo'shib olib, Shom tomon yurishni niyat qilganligi xabari Qohiraga keladi (Shihna, 1997) (Tag'riberdi, 1971) (Aka, 2000) (Kanat, 2022). Shu bilan Amir Temurga qarshi qurilgan ittifoq ham barham topdi.

Amir Temur Hindiston safarini muvaffaqiyat bilan tugatib, Samarqand shahriga qaytib keladi. Bu yerda bir qancha qurilish ishlarini amalga oshirgandan so'ng Eronga yuzlandi. U 1399-yil 10-sentyabr kuni Ray shahri tomon yo'l oladi. Raydan Sultoniya va u yerdan Qorabog'ga kelib 1399/1400 qishni o'sha yerda o'tkazadi. Bu vaqt davomida Ozarbojon, Gurjiston va Arab Iroqida ba'zi faoliyatlarda bo'lgandan so'ng Bingolga keladi. Endi Anadoli va Suriyaga yurish qilish uchun hech bir tahlika qolmagan edi (Aka, 2000). Amir Temur dastlab Bingoldan Sivas tomon yurib, u yerni usmoniylardan tortib oladi. Sivasdan keyin Albiston u yerdan Malatiya tomon yurib u yerni egallaydi (Shihna, 1997). Amir Temur Malatiyani egallagandan so'ng yangi mamluk sultoni Farajga elchi bilan bir maktub yo'llaydi. Maktubni mazmuni quyidagicha "Otang Barquq bizga qarshi bir necha marta noto'g'ri harakat qildi. Bu harakatlaridan biri, unga yuborgan elchilarimizni o'ldirdi. Hech bir podshoh bunday ish qilmaydi, elchilarni o'ldirish to'g'ri emas. Ikkinchisi, bizning navkarlarimizdan Atalmishni qamoqqa tashlagan edi. U bilan hisobimiz qiyomatga qoldi. Endi sen o'zing va yurtiga shafqat qilib Amr Atalmishni bizga qaytarki, Misr va Shomda rohatlik bilan hukumronlik qilasan. Agar aksiga harakat qilib otang kabi o'zingni tutsang, boshing keladiganini o'zingdan bil. Musulmonlar qonining gunohi sening bo'yningadir". Bu maktub Farajga yetkazildi. Ammo Faraj uzr so'rash o'rninga elchilarni qamoqqa tashladi [(Yazdiy, 2013) (Shimshirgil, Emir Timur, 2017). Amir Temur Malatyadan Ayntob tomon yo'l oldi. U Ayntobdan turib Halabdagi Shom noiblarga chopar yubordi (Arabshoh, 2019). Bu vaqtga kelib Halabni Amir Temurdan ximoya qilish va Halab noibi Damrondash Hasikiyga yordam berish uchun Damashq, Toroblus,

Hama, Sofad va G'ozza noiblari askarlari bilan yetib kelgan edilar (Shihna, 1997) (Maqriziy, 1997). Amir Temurning Shom noiblariga yuborgan maktubida, Temurga tobe bo'lib urishni oldini olish, xutbada Amir Temur nomini qo'yib o'qish va o'zining amirlaridan amir Atalmishni ozod qilishni talab qilgan. Agar bu talablar bajarilmasa butun javobgarlik ularning bo'yida qolishini ham qo'shib qo'ygan (Asqaloni, 1994). Yana u maktubida o'zi butun saltanati davomida olib borgan tashqi siyosatdagi maqsadini ochiq bayon qiladi. U maktubi davomida faqat o'zi insonlar ustidan siyosat yurgizishga loyiq ekanligini, yolg'iz u o'tkazgan kishi xalifa va imom bo'la olishi mumkinligi, barcha Amir Temurga itoatda bo'lmog'i lozimligi, Temurdan boshqa podshohlar uning xizmatida bo'lishi kerakligini aytib siyosat ishini cherkezlar hech qachon tushunmasligini ta'kidlagan (Arabshoh, 2019). Temur elchisi Halabga borgan vaqt Damashq noibi Sudun elchini qatl qiladi (Asqaloni, 1994) (Maqriziy, 1997) (Arabshoh, 2019). Elchisi o'ldirilganini bilgan Amir Temur 1400-yil 28-oktyabr kuni Halab shahriga keldi. Ikki qo'shin o'rtasida sodir bo'lgan maydon jangida mamluk qo'shinlari qaqshatchiq mag'lubiyatga uchradilar (Shihna, 1997). Amir Temur Halabda bir oy qolgandan so'ng 1400-yil 19-noyabr kuni shaharni tark etib, Damashq tomon yo'l oldi (Tag'riberdi, 1971). Halab shahriga amir Muso Hoji Tog'ayni noib qilib qoldirdi (Shihna, 1997) (Arabshoh, 2019). Temur Halabdan so'ng 1400-yil 8-dekabr kuni Hama shahriga kelib, u yerni ham egallaydi. Mashhur arab tarixchilaridan biri bo'lgan Ibn Arabshoh o'zining "Ajoib al-maqdur" asarida 1435-yil 26-sentyabr kuni Hama shahriga kelganida shaharning sharq tarafida Nuriya jomesining qibla tomonida Amir Temur tomonidan marmar toshga forsha yozdirilgan bir yozuvni ko'rganligini aytib, uni o'z asarida keltirib o'tadi. Unda shunday so'zlar bor edi: "Bu shuki, Alloh taolo bizga mamlakatlarni fath qilishni muyassar ko'rdiki, hatto biz Iroq va Bag'dodgacha (hamma) yerlarni batamom egalladik. (Shu bilan) biz Misr sultoniga qo'shni bo'ldik va unga maktub yozdik hamda turli-tuman tuhfa-yu hadyalar bilan unga choparlarimizni yubordik. U bo'lsa hech bir zaruratsiz choparlarimizni o'ldirdi. Bundan maqsadimiz ikki tomon orasida do'stlik (ipi)ni bog'lash, ikki taraf o'rtasida sadoqat (borligi)ni ta'kidlash edi. So'ngra, bundan bir oz (muddat) keyin ba'zi turkmanlar bizning tomonimizdagi kishilardan ayrimlarini tutib olib, ularni Misr sultoni Barquqqa yubordilar. Sulton ularni zindonga solib jazoladi. Mana shunga binoan muxoliflarimiz changalidan o'z fuqarolarimizni xalos qilish maqsadida biz yo'lga chiqdik. Shu sababli bizning Hamoda manzil tutishimiz 803- yil rabiy ul-oxir oyining yigirmalariga (1400-yil 8-dekabr) to'g'ri keldi" (Arabshoh, 2019). Amir Temur 1400-yil 29-noyabr kuni Damashqqa yetib keldi. Bu vaqtda Misr sultoni Faraj ham yetib kelgan edi.

Damashqdagi “Qubbatu Yalbug‘o” degan joyda Temur va Faraj askarlari chodirlarini tikishdi. Bir oydan ortiq muddat davomida ikki tomon bir-birlarini kuzatishdi. Bu vaqt davomida, ikki tomon askarlari uch yoki to‘rt marta bir-birlari bilan to‘qnashdi (Xaldun, 2000). Shunday vaziyatda Misr sultoniga mamluk amirlari tomonidan Qohirada unga qarshi fitna uyushtirilayotgani haqida xabar keldi. Sulton Damashqni o‘z holiga tashlab, yashirin tarzda Qohira tomon qochib qoldi. Bu holat Damashq aholisini sarosimaga tushurdi. Shunda Odiliyya madrasasida olim-u ulamolar yig‘ilishib, Amir Temurdan omonlik so‘rashga kelishib olishdi. Amir Temur esa ularga omonlik berdi. Shundan so‘ng Amir Temur askarlari uzoq vaqt davom etmagan qamaldan keyin Damashqni ishg‘ol qildilar (Xaldun, 2000).

Amir Temur Anqara jangidagi g‘alabadan so‘ng, Misrga elchilik hay‘atini yubordi. Bu elchilik hay‘atida usmoniylar saroyidagi olimlardan Shayx Shamsuddin Jazariyning o‘g‘li Mavlono Badriddin Ahmad ham bor edi (Asqaloniy, 1994). Temurning maktubi Ho‘ja Mas‘ud al-Gajjoniy tarafidan bir fathnoma bilan sulton Farajga yetkazildi. Sharofiddin Ali Yazdiyga maktubda, “Rum mamlakatini tamoman egalladik. Misr va Shomda xutba bizning nomimiz bilan o‘qilishi, tangani bizning nomimiz bilan bosilishi kerak. Bundan tashqari, Atalmishni bizga qaytaring. Agar aytgan talablarimizni bajarmasangiz Rum yerlaridan u tomonga harakat qilamiz” shaklida bir xabar yuborganligini qayd qilingan. Elchilik hay‘ati 1402-yil 29-sentiyabrda Misr tomon harakat qilib, Iskandariyya orqali Qohiraga yetib bordilar (Yazdiy, 2013). Arab tarixchisi Maqriziy esa Temurning “Atalmish qachon yonimga kelsa, shunda Samarqandga qaytaman” degan so‘zini keltiradi (Maqriziy, 1997). Yana elchi, ustida oltin harflar bilan Temurning ismini yozilgan va hokim kuch ekanligini qabuli manosida kelgan bir bayroq ham olib kelgan edi (Asqaloniy, 1994) (Andijon, 2019).

Mamluk sultonining Ahmad va Akta ismli elchilari 1402 yili mart oyi oxirlarida, u vaqtda Oqshaharda bo‘lgan Amir Temur huzuriga bordilar. Sulton Faraj javobida Amir Temur ko‘ragon Islom dini va musulmonlarning qutbi, ulug‘ va sharfli maqom sohibi, kabi xitoblar bilan boshlangan maktubining boshlanishda, amir Atalmishni uzoq muddat qo‘yib yubormaganligini sabablarini tushuntiradi. Gajjoniy tarafidan yetkazilgan xabarni olgandan so‘ng, davlatning katta amaldorlari bilan majlis o‘tkazib qaror qabul qilinganligini bildiradi. Amir Temurni esa vafot etgan otasi o‘rniga qo‘yishini bildirib, dunyo turguncha bu o‘zgarmasligini bildiradi. Maktubda yana shular yozilgan edi: “Biz al-Gajjoniy bilan maqomi oliyingizni vakili sifatida muzokara o‘tkazdik. Halifa, shayx ul-islom hamda davlat amaldorlari oldida qasam ichdik. Amir Atalmish ham shu joyda hozir edi. Tuzilgan shartnomani ikki nusxada tayyorlab, bir nusxasini sizga yubordik, bir nusxasini arxivga oldik.

Mamluk sultonining maktubida “al-mushtaq, yani sizni sog‘ingan Faraj” muhri bosilgan edi (Qalqashandiy, 1922) (Andijon, 2019). Bu orada mamluk sultoni Atalmishni ozod qilish bilan cheklanmasdan, katta miqdorda pul, hadiya, kiyim va ot berib, o‘n yillik tutqinlik uchun uzur ham so‘ragan edi. Bundan tashqari Misr va Shomda Amir Temur nomi bilan xutba o‘qila boshlandi. Elchilar Farajning maktubini, hadiyalarini, Qohirada Amir Temur nomi bilan bosilgan tangalarni taqdim qilib, uning yillik o‘lpon yuborishliklarini bildirdilar (Shomiy, 1996).

Shubhasiz, Amir Temur endi o‘zining vassal bo‘lgan mamluk sultonining bergan vadalarini va hadiyalarini bilan qanoatlanadigan hukumdor emas edi. Mamluk elchilari amir Ahmad va Qanibay an-Nosiriyning yoniga o‘zini elchilarini ham qo‘shib Misrga yubordi. Elchilar bilan birga toj, kamar va vassallik hil‘atini ham yubordi. Elchilar uch oy ichida Qohiraga yetib bordilar. Elchilar Amir Temurga ko‘rsatilgan hurmat talab qilinganidek, davlatning yuqori amaldorlari tarafidan shahar tashqarisida kutib olindi va Temurning bayroqlari bilan bezatilgan fil ustida Qohiraga kirdilar. Elchilar bir qancha kundan so‘ng Faraj huzuriga kirdilar. Amir Temurning maktubi baland ovozda o‘qildi va hokimiyat nishonlari sultonga taqdim qilindi. Misr tarixchisi Ibn Hajar Asqaloniy elchilik hay‘ati ikkita yashil bayroq, turli hadiyalar va vassallik hil‘ati olib kelinganligini qayd qilgandan so‘ng “bu hil‘at Faraj Temurning Misr va Suriyadagi noibi ekanligini ko‘rsatadi” (Asqaloniy, 1994) (Andijon, 2019) deb aytadi.

Amir Temur Atalmishni sog‘-salomat kelganligini bildirgan maktubida, ikki davlat o‘rtasidagi to‘qnashuvlarga yana sulton Barquqni aybladi. Bundan tashqari Temur, mamluk davlatining Sharqiy Onado‘li chegarasida bo‘lgan Malatiya, Gergar, Qahta, Rumqal‘a va Albiston kabi qal‘alarni o‘ziga topshirishni talab qiladi. Kerak bo‘lsa Shom va Halabni ham so‘rashini ilova qildi. Bundan maqsad, Tabrizdan Izmirgacha uzaygan eski Onado‘li savdo yo‘li nazoratini mustahkamlash edi. Bunga qo‘shimcha Faraj temuriylar honadonidan bir qiz bilan turmush qurib, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlamoqchi ekanligini aytdi (Andijon, 2019). Shu voqelardan so‘ng mamluk davlati ham usmoniylar davlati kabi temuriylarga vassal bo‘lib qoldi. Profressor Ahad Andijonning fikriga ko‘ra, Faraj mamluk davlatini Temurning noibi sifatida boshqaraadigan bir hokim moqomiga tushurishni maqsad qilgan (Andijon, 2019).

Amir Temurning mamluk davlatiga yo‘naltirilgan siyosatining aks ettirgan yana bir holat, Turkman qaroqchisi bo‘lgan Qora Yusuf va Jaloyirlardan Ahmad Joloyirga aloqadordir. Temur Onado‘lidan Samarqandga qaytgandan so‘ng, yana Temur askarlari bilan to‘qnashuvga kirgan Qora Yusuf va Ahmad Jaloyir yana bir bor mamluk davlatidan boshpana

so‘radi. Shom noibi tomonidan yaxshi kutib olindi. Shu vaqt Temur Shomdagi ko‘zga ko‘ringan amirlardan Nuayrga xabar yuborib, Qora Yusufni Shom hududiga kirgizganligi uchun qattiq tenbeh berib, shu mintaqaga yana harbiy yurish qilish bilan tahdid qildi (Asqaloni, 1994). Bundan tashqari shu xabarni sulton Farajga ham yuborib, o‘rtalaridagi shartomaga amal qilishni talab qildi. Faraj Temurga yuborgan javobida, Shomga kelgan qaroqchilar Ahmad Jaloyir va Qora Yusuf ushlanganliklarini bildirib, bu shaxslarni nima qilish kerakligini so‘ragan edi (Qalqashandiy, 1922). Arab tarixchisi Ibn Hajar Asqaloni sulton Farajning buyrug‘i bilan Ahmad Jaloyir va Qora Yusuf zanjirlanib, Shom qal‘asiga qamab qo‘yilganligini tasdiqlaydi (Asqaloni, 1994).

Temuriylar va mamluklar o‘rtasidagi aloqalarni yana bir jihati, Makka va Madina kabi islom dinining muqaddas shaharlari bilan bog‘liq. Haj mavsumi davrida temuriylardan bir guruh kishi keldi. Ularni Makka amiri Hasan ibn Ajlan kutib oldi. Ular Ka‘ba va Masjid ul-Haram bilan bog‘liq o‘lchovlarni oldilar (Maqriziy, 1997). Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Amir Temur islom dinining muqaddas shaharlarini boshqaruviga oid siyosatini ham yurgizib, mamluklarni bu shaharlar ustidagi boshqaruvini olib tashlamoqchi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu orqali bu shaharlarni o‘z himoyasiga kiritishi kerak edi.

Amir Temur poytaxt Samarqandga qaytgandan so‘ng, Mengli Bug‘a ismli kishi mamluk davlati elchisi bo‘lib Sohobqiron huzuriga keldi. Bu elchi ellikta tuyada va hadiyalar bilan kelgan edi (Andijon, 2019). Bundan tashqari elchilar Misrdan bir dona Jirafa va tuyaqushlar ham olib kelishgan edi (Arabshoh, 2019). Amir Temur mamluk elchisi bilan birgalikda mavlono Abdulloh Keshiyini Misrga elchi qilib yuboradi. Temur o‘z davrining mashhur xattoti mavlono Muhammad Tabriziy qo‘li bilan oltin suviga botirilgan juda uzun bir maktub yuborgan. Bu maktubda Temur sulton Ahmad Jaloyirni qamab, Qora Yusufni o‘ziga yuborishini talab qilgan (Yazdiy, 2013). Elchilar Misrga qaytib, 1405-yil 3-mart kuni Tabriz shahriga yetib keldilar. Bu vaqtda Amir Temur vafot etgan edi. Misr elchilari Tabrizda temuriyzoda shahzoda Umar tarafidan qamab qo‘yildi. Davrining siyosat qonunlariga muvofiq, yangi hukumdor tayinlanib, o‘lkada tinchlik saqlanmaguncha, oldingi hukumdorning o‘limi sir tutilishi lozim edi (Andijon, 2019). Shu sababli shahzoda Umar elchilarni qamab qo‘ygan edi.

Amir Temurning vafotidan so‘ng mamluk davlati bilan bo‘lgan munosabatlar.

Temuriylar saltanatini Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishi vaqtida vafot etgandan to Shohruh mirzo tomonidan hokimiyatni to‘la-to‘kis birlashtirilgunga qadar bir muddat o‘tish davri bo‘ldi. Bu davr mobaynida Misr mamluk davlati bilan ham diplomatik aloqalar

uzilib qoldi. Amir Temur vafotidan so‘ng bu ikki davlat o‘rtasidagi ilk elchilik munosabatlari temuriylar tarafidan mamluk sultoni Shayx al-Mahmudiya kelishi bilan boshlangan (as-Sirofiy, 1970). Shohruh mirzo elchi Muhammad Toyyibni mamluk sultoni Shayx al-Mahmudiya bir maktub bilan yuboradi. Faqat elchi Qohiraga borganda Shayx al-Mahmudiy o‘lib o‘rnini sulton Tatar egallagan edi. temuriylar tarixchilari bergan malumotda maktubning maqsadi bildirilmagan. Lekin Tatar elchilarni yaxshi kutib olib, javobida Shohruh mirzoga tobeligini bildirgan (Samarqandiy, 2008) (Aka, Mirza Shahruh: Timur‘un hukumdor o‘g‘li Ulug‘ bey‘in babasi, 2022). Bundan tashqari Mahmud as-Sai qo‘li bilan yuborilgan maktubda, Shohruh yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini davom ettirib, o‘rtalarida dushmonchilik bo‘lmasligini ta‘minlash, bundan tashqari Qora Yusuf o‘lganli va o‘g‘li Ibrohimni sultonni Iroq o‘lkasiga va Bag‘dodga yuborganini aytgan (Hijja, 2003) (Kanat, 2022) (Aka, Mirza Shahruh: Timur‘un hukumdor o‘g‘li Ulug‘ bey‘in babasi, 2022).

1422-yil 1-aprelda mamluk davlati taxtiga sulton Barsbay chiqdi. 1425-yil yanvar oyida Shohruhdan Barsbayga bir elchi borganligi ma‘lum. Lekin manbalarda elchining nima sababdan kelganligi bildirilmagan. Faqat elchi to‘qqiz oy yo‘l yurib kelganligi va elchi uchun 28-yanvarda tantanali qabul marosimi o‘tkazilganligi ma‘lum (as-Sirofiy, 1970) (Kanat, 2022). 1429-yil 13-oktyabr kuni Shohruh tomonidan yana bir elchilik hay‘ati Qohiraga yetib bordi. Elchilar mamluk sultoni Barsbayga Shohruh va Sheroz hokimi Ibrohim sultonining maktub va qimmatli sovg‘a-salomlarini yetkazdilar. Shohruh Barsbayga yuborgan maktubida undan Ibn Hajar Asqaloniyning Imom Buxoriyning “Sahih al-Buxoriy” nomli kitobiga yozgan sharhini va Taqiyuddin Maqriziyning “Kitob as-Suluk” deb nomlangan kitobini yuborishini so‘ragan. Bundan tashqari, undan Ka‘baga kisva yoptirish va Makkayi Mukarraga suv yo‘li qurishni xohlashini bildirgan (Iyos, 1972) (Tag‘riberdi, 1971) (as-Sirofiy, 1970). Mamluk sultoni Shohruhning kitoblar masalasidagi talabini qondiradi. Lekin Ka‘baga kisva yopish va Makkaga suv yo‘li qurish masalasida, uning uchun alohida vaqf joriy qilinganligini va Makkada suv yo‘li yetarlicha borligini aytib, boshqasiga ehtiyoj yo‘qligini aytadi (Iyos, 1972) (Kanat, 2022). Xulosa qilib ko‘riladigan bo‘lsa, agar Ka‘baga Shohruh tomonidan kisva yoptiriladigan bo‘lsa, uning islom olamida nufuzini ortib ketishiga olib kelardi. Bu narsa xalifa ham uning himoyasida bo‘lgan sulton Barsbay va mamluk davlati manfaatlariga zid keladi. Shuning uchun Barsbay Shohruhning kisva va suv yo‘li talablarini rad etgan. Shohruh 1429-yil 17-noyabrda Qorabog‘ga keladi. Shu yerda ekanligida Misrdan sulton Barsbayni elchilari maktub bilan Shohruh mirzo huzuriga chiqdilar. Manbalarda maktubda nima haqida yozilganligi bayon qilinmagan (Samarqandiy, 2008) (Aka, Mirza Shahruh:

Timur'un hukumdar o'g'li Ulug' bey'in babasi, 2022) (Kanat, 2022). Temuriylar hukumdori Qorabog'dan ketishdan oldin 1430-yil 5-may kuni Ozarbijon hokimligini Qora Yusufning o'g'li Abu Saidga topshirib, Misrga yana bir elchi yubordi. O'zini sharif deb bilingan Hoshim ismli shaxs 1430-yil 15-iyunda bir maktub bilan Qohiraga yetib keldi. Maktub muhrlanmagan edi va basmala bilan boshlanmasdan Qur'oni karimdagi Fil surasining birinchi oyati bilan boshlangan edi. Maktubda mamluk sultoniga al-amir Barsbay deb xitob qilinib, qilgan ayrim harakatlari uchun unga tahdid qilingan edi (as-Sirofiy, 1970) (Aka, Mirza Shahruh: Timur'un hukumdar o'g'li Ulug' bey'in babasi, 2022) (Kanat, 2022).

1433-yil 21-yanvar kuni Qohiraga savdogarlar orqali Shohruxning bir maktubi keladi. Temuriy hukumdor bu maktubida ham mamluk sultoniga amir Barsbay deb xitob qilib, yana Ka'baga kisva yuborish niyati borligini bildirgan. Agar bu istaklariga ijobiy javob bermasa, bu ishlarni tahdid mohiyatida ekanligini bildirgan. Barsbay bu tahdidlarga e'tibor bermasdan avvalgisi kabi Shohruxga ayni shu shaklda tahdidlar bilan javob bergan. Agar Barsbay Shohruxning bu talabini qondiradigan bo'lsa, u keyin Shom hududlarni ham talab qila boshlashi mumkin edi (Tag'riberdi, 1971) (Kanat, 2022). Sulton Barsbay Shohrux mirzoga qarshi doim ehtiyot choralarini ko'rib munosabatta bo'lgan. Chunki, uning otasi Amir Temur mamluk qo'shini va davlatiga asrlarga tatigulik dars bergan edi. Zotan o'sha vaqtlarda Shohrux ham otasining qo'shinini bir qismini boshqargan edi.

Temuriylar hukumdori Shohrux bilan mamluk hukumdori Barsbay o'rtasida juda qizg'in va ziddiyatli munosabatlar davom etaverdi. Shohrux Ka'baga kisva yopirish masalasini tez-tez takrorladi. Buning natijasida hatto Barsbay 1434-yil 11-sentiyabr kuni Misrning to'rtta bosh qozisini chaqirib, Shohrux talab qilgan Ka'baga kisva yopirish masalasini muhokama qildilar. Birinchi kuni bir qarorga kelmadilar. Keyingi kun mamluk davlati hanafiylar bosh qozisi Badriddin Ayniy Shohruxga kisva yopirishga ruhsat berish to'g'ri bo'lmasligini aytdi. Shofei mazhabi bosh qozisi ham bu ish joiz bo'lmasligini aytdi. Majlisda Badriddin Ayniyni hulosalari olindi (Iyos, 1972). Barsbay 1434-yil sentiyabr oyida Shohruxning elchilari bilan birgalikda o'zining elchisi amir Aktavni Shohrux huzuriga elchi qilib yubordi. Elchi bilan birgalikda hukumdorga hadiya sifatida Iskandariya matolari va ba'zi sovg'a-salomlarini yubordi. Barsbay elchi bilan yuborgan maktubida Shohrux Ka'baga kisva yopirishiga ruhsat bera olmasligini, agar unga ruhsat bersa, boshqa sultonlar ham undan buni talab qilishi mumkinligini aytdi. Agar Shohrux maqul ko'rsa Ka'ba kisvasini sotib, pulini Makkaning kambag'al aholisiga tarqatsa undan ko'ra savobli bo'lishini aytdi (Tag'riberdi, 1971) (Iyos,

1972) (Aka, Mirza Shahruh: Timur'un hukumdar o'g'li Ulug' bey'in babasi, 2022) (Kanat, 2022). Barsbayning bu qarorga katta ehtimol bilan to'rt bosh qozisi bilan maslahatlashgandan so'ng kelgan. Yani bu qozilarning chiqargan hukumlari bo'lishi mumkin. Chunki Shohrux 1435-yil 3-may kuni Barsbayga yuborgan maktubida sulton Barsbayni Jiddadagi savdogarlardan shar'iy bo'lmagan makus soliqlarni olganlikda aybladi [(Tag'riberdi, 1971) (Iyos, 1972). Misr qozilarini esa sultondan pora olib fatvo chiqarganlikda ayblagan (Tag'riberdi, 1971) (Tarxon, 1959).

Shohrux 1435-yil yanvar oyida Shayx Safoni Qohiraga elchi qilib yubordi. Uning Shayx Safo orqali Barsbayga yuborgan maktubida, bundan keyin hutbani Shohrux nomiga o'qilishi va uning nomidan pul zarb qilinishini talab qilgan. Bundan tashqari Barsbay uchun bir dona vassallik hil'atini yuborib, uni Misrda o'zining noibi bo'lishini talab qilgan (Iyos, 1972) (as-Sirofiy, 1970) (Kanat, 2022). Bu holat Misr sultonini qattiq g'azblantirdi. U elchilarni chaqirib, Shohrux tomonidan yuborilgan hil'atni yoqtirdi. Elchilarni suvga bo'ktirib, tayoq urdirib turli qiynoqlarga soldi (as-Sirofiy, 1970) (Tag'riberdi, 1971). Barsbay Shohrux mirzoning elchilariga qilgan bu harakatlaridan keyin, uni mamluk davlatiga yurish qiladi deb o'ylab, o'ziga ittifoqchi izlay boshlaydi. Chunki, Barsbaydan oldingi mamluk sultonlari temuriylar elchilariga hurmatsizlik qilishni badalini juda og'ir o'tashgan edi. Barsbay shu maqsadda 1436-yil 23-yanvar kuni usmoniylar sultoniga bir maktub yuborib, Shohruxga qarshi jangga tayyorgarlik ko'rayotganligini aytib, u bilan ittifoq qilish niyatini aytdi (as-Sirofiy, 1970). Lekin Shohrux mirzo tabiatan muzokaraga moil edi. Bundan tashqari, Sharqiy Onado'li, Ozarbijon va Iroq hududlarida qaroqchi lekin juda kuchli bo'lgan Qoraqo'yinli tahlikasini tamoman bartaraf bo'lmaganligi sababli mamluklar ustiga to'g'ridan to'g'ri harbiy yurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Shuning uchun Shohrux mirzo turli xil siyosiy yo'llar bilan mamluk davlatini o'ziga tobe qilishni maqsad qilgan. 1439-yil may oyida Misr mamluk sultoni Barsbay vafot etdi. Uning o'rniga shu yil avgust oyida sulton Chaqmoq mamluk hukumdori bo'ldi (Iyos, 1972).

1439-yil noyabr oyida Qohiraga Shohrux mirzodan bir elchi bordi. Elchi olib borgan maktubda Shohrux Barsbayning o'limidan xabar topganligi va mamluk taxtiga Chaqmoq chiqqanigidan xursand bo'lganini bildirgan (Iyos, 1972) (Aka, Mirza Shahruh: Timur'un hukumdar o'g'li Ulug' bey'in babasi, 2022) (Kanat, 2022). Shohruxning elchisi Qohirada bo'lgan vaqtda, sulton Chaqmoqning Chichekbug'o deb nomlangan elchisi Hirotda Shohrux huzuriga kelib, yangi sultonning hadiyalarini topshirdi. Sulton Chaqmoq elchi orqali Shohruxdan kutubxonasida bo'lgan beshta qimmatli kitobni yuborishini iltimos qilgan. Misr hukumdori

so‘ragan kitoblarning nomlari quyidagilardir: Abu Mansur Motrudiyning “Ta’vilot ahli sunna”, Fahriddin Roziyning “Tafsiri Kabir” va Sharhi ravza dar mazhabi Shofe”, Ho‘ja Mas‘ud Buxoriyning “Sharhi talhisi jome”, Mavlono Alovuddin Pahlavoning “Sharhi Kashshof” (Samarqandiy, 2008).

Shohrux Sayyid Shamsuddin Muhammad Zamzami boshchiligida yana bir elchilik hay‘atini Qohiraga yubordi. Bu elchi mamluk sultoni Chaqmoqdan Shohruxning Ka‘baga kisva yuborish masalasida ruhsat olib qaytadi (Kanat, 2022). Shuning uchun 1444-yil Shohruxning yangi elchilik hay‘ati Qohiraga keladi. Bu elchilik hay‘ati yuz kishidan tashkil topgan edi. Bu insonlarning sovg‘a-salomlar solingan sandiqlari, shu sandiqlarning birida Shohrux tomonidan yuborilgan Ka‘baning kisvasi va Amir Temurning tul xotinlaridan biri ham bor edi (as-Sirofiy, 1970) (Iyos, 1972). O‘sha vaqtda xalqdan bir guruh insonlar elchilar turgan uyga borib, u yerdagi ming dinorlik qiymatdagi hadiyalarni talon-taroj qilishadi. Hodisa sultonga xabar berilganda, sulton shu zahoti Qohira volisi bilan hojib al-hujjobga talangan buyumlarni topib, o‘rniga qaytarilishini buyurdi. Ular bu ishni amalga oshirgan mamluklar va xalqning bir qismini sultonni oldiga olib kelib qattiq jazoga tortdilar. So‘ng elchilarga uzurlarini bildirdilar (as-Sirofiy, 1970) (Iyos, 1972). Sultonning Shohruxga kisva masalasida rusat berishini, Misrda hanafiyalar bosh qozisi Badriddin Ayniy “bu sultonning Shohrux oldidagi o‘jizligidir” deb aytadi (as-Sirofiy, 1970). Keyingi yillarda bu ikki davlat o‘rtasida aloqalar yumshoqlik va tinchlik kayfiyatida bo‘ldi. Bu holat 1447-yil Shohrux mirzoning vafot etguniga qadar davom etdi.

Sulton Abu Said mirzo saltanati davrida 1464-yil oxirlarida Misrdan elchilar kelganligini bilamiz. Faqat, temuriylar va mamluklar o‘rtasida chegara yo‘qligi sabab o‘zaro aloqalar katta ahamiyat kasb etmasdan qoldi (Alan, 2007).

XULOSA

Temuriylar va Misrdagi mamluk davlati o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq ochib berishda fors tilidagi manbalar yetarli bo‘lmay, bunda arab manbalarining ham o‘rni beqiyosdir.

Mamluk davlati 1250-yilda tashkil topdi va 1260-yil “Ayni Jolut” jangida Sayfiddin Qutuz yetakchiligida to‘xtatib bo‘lmas nom olgan mo‘g‘ul qo‘shinini ayanchli mag‘lubiyatga uchratgandan so‘ng ushbu mintaqada juda qudratli kuchga aylangan edi. 1382-yil noyabr oyida mamluk davlati taxtiga cherkezlardan bo‘lgan Sulton Zohir Barquq chiqdi va uning olib borgan muvaffaqiyatli siyosati sababli, Amir Temurga muxolifatchi kuchlar uning oldida panoh topishgan.

Amir Temur bilan mamluk sultoni Barquq o‘rtasidagi munosabatlar Amir Temur 1393-yil Bag‘dod

shahrini fath etgandan so‘ng taranglashadi. Chunki, bu vaqtga kelib bu ikki davlat o‘rtasida o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri chegara vujudga keladi.

Temuriylar va mamluklar o‘rtasida munosabatlarda asosiy maqsad musulmon dunyosida yetakchilik qilishga intilish bo‘lgan.

Temuriylar va mamluklar o‘rtasidagi munosabatlarda geosiyosiy munosabatlardan tashqari ilmiy-marifiy munosabatlar ham o‘rnatilgan. Bunga Shohrux mirzoning sulton Barsbaydan Ibn Hajar Asqaloniy va Taqiyuddin Maqriziylarni kitoblarini yuborishini so‘raganligi va mamluk sultoni Chaqmoq ham Shohrux mirzodan kutubxonasidagi kitoblarni so‘raganligini misol keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai Sa‘dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 1- bo‘lim. – Toshkent : O‘zbekiston, 2008. – B. 632.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai Sa‘dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 2- bo‘lim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 849.
3. Низомиддин Шумий. (2019). Зафарнома. – Тошкент : O‘zbekiston, 1996. – B. 528.
4. Ibn Arabshoh. (2019) Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent : Fan, 2019. – B. 513.
5. Şerefüddin Ali Yezdi. (2013). Zafernâme. – İstanbul : Selenge, 2013. – S. 512.
6. Cüneyt Kanat. (2022) Memlûk Timurlu münasebetleri. – Ankara : Türk tarih kurumu, 2022. – S. 233.
7. Yaşar Yücel. (1970) Kadı Burhaneddin Ahmed Ve Devleti. – Ankara : Ankara üniversitesi basımevi, 1970. – S. 223.
8. İsmail Aka. (2022) Mirza Şahruh: Timur’un hükümdar oğlu Uluğ Bey’in Babası (1405-1447). – İstanbul : Kronik, 2022. – S. 305.
9. İsmail Aka. (2000) Timur ve Devleti. – Ankara : Türk tarih kurumu, 2000. – S. 172.
10. Hayrunnisa Alan. (2007) Bozkirdan Cennet Bahçesine Timurlular 1360-1505. –İstanbul : Otuken, 2007. – S. 329.
11. Aziz ibn Erdeşir Esterabadî. (1990) Bezm u Rezm. –Ankara : Kultur bakanlığı, 1990. – S. 506.
12. Ahat Andican. (2019) Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. – İstanbul : Selenge, 2019. –S. 927.
13. Ahmet Şimşirgil. (2017) Emir Timur. – İstanbul, 2017. – S. 319.
14. أحمد بن علي القلقشندي. صبح الأعشى في صناعة الإنشاء. الجزء الخامس. القاهرة. ٢٢٩١. ص. ٧٣٥
15. أحمد بن علي القلقشندي. صبح الأعشى في صناعة الإنشاء. الجزء السابع. القاهرة. ٢٢٩١. ص. ٤٢٤
16. أكرم حسن العلي. تيمورلنك و حكايته مع دمشق. دمشق. ٧٨٩١. ص. ٥٠٢

17. إبراهيم علي طرخان. مصر في عصر دولة المماليك الجراكية. القاهرة. ١٩٥٩. ص ٦٧٣
18. ابن تغرى بردى. النجوم الزاهرة في ملوك مصر والقاهرة. الجزء الثاني عشر. القاهرة. ١٧٩١. ص. ٧٥٤
19. ابن تغرى بردى. النجوم الزاهرة في ملوك مصر والقاهرة. الجزء الرابع عشر. القاهرة. ١٧٩١. ص. ٦٣٣
20. ابن تغرى بردى. النجوم الزاهرة في ملوك مصر والقاهرة. الجزء الخامس عشر. القاهرة. ١٧٩١. ص. ٤٣٧
21. ابن إياس. بدائع الزهور في وقائع الدهور. الجزء الأول. القاهرة. ٢٧٩١. ص. ٠٠٥
22. ابن إياس. بدائع الزهور في وقائع الدهور. الجزء الثاني. القاهرة. ٢٧٩١. ص. ٢٢٦
23. ابن الشحنة. روض المناظر في علم الأوائل والأواخر. بيروت. ٧٩٩١. ص. ٤٤٣
24. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. الجزء الأول. القاهرة. ٤٩٩١. ص. ٥٨٥
25. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. الجزء الثاني. القاهرة. ٤٩٩١. ص. ٤٨٥
26. ابن حجة. قهوة الإنشاء. بيروت. ٣٠٠٢. ص. ١٢٦
27. ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون الجزء السابع. بيروت. ٠٠٠٢. ص. ٢٦٧
28. تقي الدين المقريزي. السلوك لمعرفة دول الملوك. الجزء الخامس. بيروت. ٧٩٩١. ص. ٤٦٤
29. تقي الدين المقريزي. السلوك لمعرفة دول الملوك. الجزء السادس. بيروت. ٧٩٩١. ص. ٧١٥
30. علي بن داود الصيرفي. نزهة النفوس والأبدان في تواريخ الزمان. الجزء الأول. القاهرة. ٠٧٩١. ص. ٤٤٥
31. علي بن داود الصيرفي. نزهة النفوس والأبدان في تواريخ الزمان. الجزء الثاني. القاهرة. ٠٧٩١. ص. ٨٨٥
32. علي بن داود الصيرفي. نزهة النفوس والأبدان في تواريخ الزمان. الجزء الثالث. القاهرة. ٠٧٩١. ص. ٦٧٥
33. علي بن داود الصيرفي. نزهة النفوس والأبدان في تواريخ الزمان. الجزء الرابع. القاهرة. ٠٧٩١. ص. ٦٧٥
8. Ahmad ibn Ali Qalqashandiy. (1922). Subhi al-A'shafi sinaati inshai. – Qohira. Darul kutub Misriyya, 1922. – 7-jild. –B. 424.
9. Ahmet Shimshirgil. (2017). Emir Timur. – Istanbul: 2017. – S. 319.
10. Ahat Andijan. (2019). Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. – İstanbul: Selenge, 2019. –S. 927.
11. Akrom Hasan Ulabiy. (1987). Timurlank va hikayatuhu maa Damashq. – Damashq: Darul ma'mun littaros, 1987. – B. 205.
12. Aziz ibn Erdeshir Esterabadi. (1990). Bezm u Rezm. –Ankara: Kultur bakanligi, 1990. – S. 506.
13. Hayrunnisa Alan. (2007). Bozkirdan Cennet Bahchasine Timurlular 1360-1505. –İstanbul: Otukun, 2007. – S. 329.
14. Ismail Aka. (1994). Timur ve Devleti. – Ankara: Turk tarih kurumu, 2000. – S. 172.
15. Ibn Hajar Asqaloniy. (1994). Inbawl gumur bi anbail umur. – Qohira: 1994. – 1-jild. – B. 585.
16. Ibn Hajar Asqaloniy. (1994). Inbawl gumur biinbail umur. – Qohira: 1994. – 2-jild. – B. 584.
17. Ibn Tag'riberdi. (1971). An-nujum az-zohira fi muluki Misr va al-Qohira. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1971. –12-jild. –B. 457.
18. Ibn Tag'riberdi. (1971). An-nujum az-zohira fi muluki Misr va al-Qohira. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1971. –14-jild. –B. 336.
19. Ibn Tag'riberdi. (1971). An-nujum az-zohira fi muluki Misr va al-Qohira. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1971. –15-jild. –B. 734.
20. Ibn Xaldun. (2003). Tarixi ibn Xaldun. – Bayrut: Dar al-fikr, 2000. – 7-jild. – B.762.
21. Ibn Hijja. (2003). Qohvat al-insha'. – Bayrut: Dar al-G'om, 2003. – B. 621.
22. Ibn Iyoz. (1972). Badoiu az-zuhur fi vaqoi'i ad-duhur. – Qohira: 1972. –B. 500.
23. Ibn Iyoz. (1972). Badoiu az-zuhur fi vaqoi'i ad-duhur. – Qohira: 1972. – 2-jild. –B. 622.
24. Ibrohim Ali Tarxon. (1959). Misr fi asri Mamalik jarokiyati. – Qohira: Matbaatu Misriyya, 1959. –B. 376.
25. Ibn Shihna. (1994). Rovzul manozir fi ilmi availi va avaxiri. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1994. – B. 344.
26. Ibn Arabshoh. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 513.
27. İsmail Aka. (2022). Mirza Shahruh: Timur'un hukumdar o'g'lu Uluğ Bey'in Babası (1405-1447). – İstanbul: Kronik, 2022. – S. 305.
28. Nizomiddin Shomiy. (1996). Zafarnoma –Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B.528.
29. Taqiuddin Maqriziy. (1997). As-suluk lima'rifati duval al-Muluk. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1997. – 5-jild. – B.464.
30. Taqiuddin Maqriziy. (1997). As-suluk lima'rifati duval al-Muluk. – Bayrut. Darul kutub ilmiyya, 1997. – 6-jild. – B. 517.
31. Yashar Yujel. (1970). Kadı Burhaneddin Ahmed Ve Devleti. – Ankara: Ankara universitesi basımevi, 1970. S. 223.
32. Juneyt Kanat. (2022). Memluk Timurlu münasebetleri. – Ankara. Turk tarih kurumu, 2022. – S. 233.
33. Sherefüddin Ali Yezdi. (2013). Zafarnâme. – İstanbul: Selenge, 2013. – S. 512.

REFERANS

1. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 1- bo'lim. Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 632.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. 2-jild 2- bo'lim. Toshkent: O'zbekiston, 2008. –B. 849.
3. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 1-jild. –B. 544.
4. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 2-jild. – B. 588.
5. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 3-jild. –B. 576.
6. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 4-jild. –B. 396.
7. Ahmad ibn Ali Qalqashandiy. (1922). Subhi al-A'shafi sinaati inshai. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1922. – 5-jild. –B. 537.